



## HARBIY VATANPARVARLIKNI OSHIRISHDA YOSH AVLODNING O'RNI

**Tukhtanazarov Ilkhom Ibragimcanovich**

*Harbiy ta'lim fakulteti uslubiy tayyorgarlik sikli katta o'qituvchisi*

Kelajak avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash - davlat organlari, jamoa tashkilotlari va birlashmalarining yoshlarda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashidagi maqsadli, tizimli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir. Bundan asosiy maqsad yoshlar ongida fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy qadriyatlarni va konstitutsion burchlariga nisbatan sadoqat hissini shakllantirishdir.

Harbiy vatanparvarlik ona yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo'lida fidoiylik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan yoshlarga xos fazilatdir. Vatanga, xalqqa bo'lgan xurmat, muhabbat, ishonch tuyg'usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o'rin oladi, faoliyaiga ta'sir qilib, ularni ma'suliyatli vazifalarni bajarishga safarbar etib turadi. Demak, aytish mumkinki, vatanparvarlik - o'z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bog'lagan barcha kishilarga xos fazilatdir.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tashkil etilgan ilk kunlardan boshlab, uning saflariga ma'nan boy, qadriyatlarimizga an'ana va urf-odatlarimizga sodiq, jismonan baquvvat va intellektual salohiyatli bo'lgan yoshlarni jalb etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondonligi qisqa vaqt ichida o'zining faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tayyorlash bilan bir qatorda saflarida har qanday sharoitda jamoat tartibi va aholining xavfsizligini himoya qilishga qodir bo'lgan kadrlar bilan to'ldirishning yangicha, ya'ni uzluksiz kadrlar tayyorlash tizimini ham yo'lga qo'yishga ulgurdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi safini to'ldirish uchun yoshlarni umumiy o'rta ta'lim maktabidan boshlab harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratildi.

Bugungi kunda respublikamizning har bir viloyatida 4 tadan, umumiy hisobda 56 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarida Milliy gvardiya tizimi uchun kadrlarni uzliksiz va maqsadli tayyorlaydigan harbiy vatanparvarlik yo'nalishiga ixtisoslashtirilgan sinflar faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaharlar va aholi punktlarida jamoat tartibi va xavfsizlikning saqlanishini ta'minlashda ko'maklashish;
- davlat ahamiyatiga ega obyektlar, hayotiy muhim obyektlar, xorijiy davlatlarning diplomatik, konsullik va boshqa vakolatxonalarini hamda jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlash va himoya qilish;
- terrorizm va ekstremizm harakatlarining oldini olishda ishtirok etish;
- mamlakatning hududiy yaxlitligi va mudofaasini ta'minlashda ishtirok etish;



- ov va xizmat o'qotar qurollarining mamlakat hududiga olib kirilishi, olib chiqilishi, xarid qilinishi, saqlanishi va qo'llanilishini nazorat qilish;
- tabiiy va texnogen xususiyatga ega bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etishda ko'maklashish;
- xorijiy davlatlarning rasmiy vakillarini kutib olish va kuzatishda yuksak darajadagi marosim tadbirlarini ta'minlash.

Qayd etilishicha, O'zbekistonning turli nuqtalarida Milliy gvardiya tizimidagi barcha boshqarmalar, harbiy qism, bo'linmalar, harbiy xizmatchi va xodimlar tomonidan maxsus tadbirlar uyushtirilgan.

Vatanparvarlik oyligi doirasida 1 oy mobaynida shahar, tuman markazlarida mahalliy aholi uchun harbiy parad va festivallar, musiqiy dasturlar, qurol-aslaha va harbiy texnikalar namoyishlari, yugurish marafonlari, targ'ibot tadbirlari hamda aksiyalar bo'lib o'tmoqda.

Bundan tashqari, mazkur tadbirlar turli pog'onadagi ta'lim muassasalari, mehribonlik va muruvvat uylari tarbiyalanuvchilari uchun yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan harbiy ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar namoyish etilmoqda.

Milliy gvardiya harbiy xizmatchi va xodimlari ikkinchi jahon urushi qahramonlari va mehnat faxriylari, xizmat burchini o'tash chog'ida halok bo'lgan xizmatdoshlarining oila a'zolari hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi vakillari holidan xabar olib, ularga ma'naviy va moddiy yordam ko'rsatib kelishmoqda.

Xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlarni qo'yib, tinch-osoyshta hayot kechirayotgan, avvalambor, o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan zamonda yashamoqda. Bugungi kunda o'zbek xalqi o'z taqdirimizni o'zimiz belgilab, azaliy qadriyatlarimizga tayanib, rivojlangan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, istiqbolli, olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, barcha imkoniyatlarimiz va bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olganligi - aynan, mustaqillikning sharofati ekanligidan dalolatdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nabiyeu, M. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch asarida globallashuv davrida milliy taraqqiyotni ta'minlashning usul va vositalar tahlili. 2020
2. Milliy istiqbol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: Fan, 2001
3. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: Adolat, 1992.
4. <https://science.i-edu.uz/index.php/archive/jspi/article/view/6497>
5. <https://www.researchgate.net/publication/>